

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13786719>

TALABA-YOSHLARNI MA'NAVIY TARBIYALASHDA OTA-ONALAR PEDAGOGIK MADANIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

Usanov Sherzod Abdulaxatovich,

Eshnazarova Gulzoda Jo'raqulovna

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Pedagogika kafedrasи oqituvchilar

Annotasiya: Maqolada talaba-yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyasini halollik, adolat asosida tashkil qilish uchun ota-onalarning pedagogik ma'lumotlarini takomillashtirish jarayoni yoritilgan.

Kalit so'zlar: Talaba, yoshlar, ma'naviy-axloqiy, tarbiya, halollik, adolat, ota-on, hayotga tatbiq etish, sadoqatli, munosib bo'lish, milliy tarbiya, pedagogik bilim.

Аннотация: В статье описан процесс совершенствования педагогической информации родителей с целью организации духовно-нравственного воспитания учащихся и молодежи на основе честности и справедливости.

Ключевые слова: Студент, молодежь, духовно-нравственный, образование, честность, справедливость, родители, реализация, верность, достойность, национальное образование, педагогические знания.

Annotation: The article describes the process of improving the pedagogical information of parents in order to organize the spiritual and moral education of students and youth on the basis of honesty and justice.

Key words: Student, youth, spiritual and moral, education, honesty, justice, parents, implementation, loyalty, being worthy, national education, pedagogical knowledge.

Ota-bobolarimiz halollikni hamisha qadrlab kelganlar. Halollik (arabcha ruxsat etilgan, yo‘l qo‘yilgan; qonuniy, asosli; to‘g‘rilik, vijdonlilik) – shariat hukmiga muvofiq yesa, ichsa, foydalansa bo‘ladigan; kishining o‘ziga qarashli, o‘z mehnati bilan, peshona teri to‘kib topilgan; xiyonat, g‘irromlik kabilardan xoli, qing‘ir yo‘lga bormaydigan, birovni aldamaydigan; to‘g‘ri, sof, pokiza bo‘lishni talab qiladigan ma’naviy-axloqiy me’yorni anglatuvchi tushuncha.

Insonni ma’naviy-axloqiy jihatdan bezaydigan ajoyib fazilatlar dan biri – halol, pokiza yashash. Birovlarning haqiga zarracha bo‘lsa-da, xiyonat qilmaslikdan iboratdir. Halol bilan haromni farqlash, faqat o‘z mehnati evaziga tirikchilik qilish, harom-harishdan jirkanish, haromxo‘rlikni eng katta gunoh va axloqsizlik deb bilish milliy tarbiyamizning asosiy qoidasi.

Halollik vijdon,adolat va burch kabi axloqiy tushunchalar bilan bog‘liq, insonning o‘zgaga munosabati o‘ziga munosabatidek sof, pokiza bo‘lishini talab qiladigan axloqiy me’yordir. Dastavval u diniy tushuncha sifatida vujudga kelib, har bir musulmonning yemak-ichmagi, jinsiy va iqtisodiy xatti-harakatlarini belgilab beruvchi shar‘iy me’yor sifatida amal qilgan. Keyinchalik halollik nisbatan tor shar‘iy qobiqdan chiqib, asta-sekin shaxs hayotidagi keng qamrovli axloqiy me’yorga aylandi, teran ma’naviylik kasb etgani holda, kundalik hayotdagi insoniylikni belgilaydigan umuminsoniy fazilatga aylandi. Masalan, hozirgi kunda biz kasbiy halollik, ilmiy halollik, iqtisodiy halollik va boshqa haqida gapirishimiz mumkin.

Halollikning mavjudligi fidoyilik, rostgo‘ylik bilan shartlanadi. Doimo halollik qilishi yoki halol yashashi uchun kishi albatta nimalardandir kechishi, kimlargadir qarshi borishi, faqat rost gapirishi, so‘z bilan ish birligiga erishishi kerak. Shu bois halol inson jamoatchilik o‘rtasida obro‘-e’tiborga ega, hurmatga sazovor bo‘ladi. Qaysi jamiyatda halol fuqarolar ko‘paysa, o‘sha yerda baxt va farovonlik hukm suradi. Benjamin Franklin “halollik foydalidir, chunki u hurmat keltiradi”¹ degan.

¹ Знаков В. В.. Психология понимания. Проблемы и перспективы. М.: Институт психологии РАН, 2005 — 148-бет.

Haqiqatdan ham ma’naviyatning asosini tashkil etadigan halollik, adolat kabi boshqa ko‘plab tushunchalar birinchi galda insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratini tashkil etadi. Chunki insonning halolligi, adolatli bo‘lishi ham shaxsiy, hamoilaviy, ham ijtimoiy xarakterga ega. U yo‘q joyda, hech qachon, xech vaqtda baxt-saodat ham bo‘lmaydi. Xususan inson ham baxt-saodatli bo‘la olmaydi. Ammo insonning ma’naviy barkamolligining tarkibini, asosini tashkil etadigan halollik, adolat kabi ma’naviy tushunchalar inson ongida, qalbida, shug’ullanadigan ishida, xullas ijtimoiy hayotida shakllanmas ekan, u inson komil bo‘la olmaydi. Demak inson komil bo‘lishi uchun esa birinchi navbatda o‘zida halollik, adolat singari ko‘plab tarbiya tarkiblarini o‘zida shakllantirmog’i shart ekan.

Komil insonsiz esa insonlar, xalq, jamiyat, davlat o‘z murod maqsadiga erisha olmaydi. Ularning yagona maqsadiga erishishni faqat ma’naviy barkamol, halol, adolatli insoniy fazilatlarga ega bo‘dgan barcha insonlar ro‘yobga chiqarishi muqarrar. Chunki ma’naviyatsiz inson yashay olmaydi va yashay olmasligi ham kerak. Qolaversa halollik, adolat nafaqat oila tarbiyasida emas, balki mahallaga, jamiyatga, davlatga hatto umumbashariyatga xizmat qiladigan ijtimoiy ma’naviy-axloqiy tushuncha deb tushunish maqsadga muvofikdir. Shuning uchun ham hozirda ma’naviy barkamol halol, adolatli talaba yoshlarni shakllantirish, ijtimoiy hayotga tayyorlash juda muhim ijtimoiy vazifa bo‘lib qolmoqda.

Bu haqda sharqning mashhur allomasi Yusuf Xos Xojib «Qutadg’u bilik» dostonida «Halol, haqgo‘y, axloq-odobli kishi har qanday qimmatbaxo narsadan ham qimmatli», -deb bildirga fikri bag’oyat hayotiyligini, ijtimoiy hayotning o‘zi isbotlab turibdi. Chunki shunday sifatlarni o‘zida shakllantirgan insongina barkamol bo‘lib tarbiyalangan bo‘ladi. Bunday inson avval o‘ziga, oilasiga, davlatga moddiy va ma’naviy foyda keltiradi. Shuning uchun ma’naviy barkamol talaba-yoshlarni shakllantirish davlat, jamiyat rivojlanishning ob’ektiv ehtiyoji bo‘lib qolmoqda. Ma’naviy barkamol inson avvalo, oilada, maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus ta’limi, oliy ta’lim, mehnat jamoalari va ijtimoiy jamiyatda shakllanadi. Buning uchun inson yuqoridagi tarbiya maskanlarida ma’naviyatning asosini, negizini,

poydevorini tashkil qiladigan halollik,adolat, oriyat, or-nomus, vijdon, diyonat singari ma'naviy-axloqiy tarbiya haqida tizimli, uzlucksiz ilmiy ma'lumot olmog'i shart. Bunday ma'naviy tushuncha, bilimlarga sho'rolar davrida amal qilish susayishi yoki amal qilish bo'limganligi tufayli jamiyatda va oilada ko'ngilsiz voqealarni keltirib chiqardi. Buning natijasida jamiyat hayotining barcha sohalarida ma'naviy ijtimoiy inqiroz va ayniqsa iqtisod borasida pasayishi ro'y berdi. Ba'zi bir oilalar tarbiyasida halollik, adolat kabi ma'naviy asosga amal qilmaslik natijasida oilaning birdan moddiy boyib ketishi, oila a'zolarining mehnatdan uzoqlashishish, boshqalarga past nazar bilan qarash, bola tarbiyasiga e'tiborning susayishi oqibatida tayyorga ayyor bo'lib yashash singari ma'naviy buzulish sodir bo'ldi.

Bu nuqsonlar hozir ham mavjud. Davlatning ijtimoiy rivojlanishini ayniqsa iqtisodni barqarorlashtirish uchun barcha fuqarolarni shuningdek kelajak tayanchini tashkil etadigan talaba-yoshlarning oilada (birinchi galda) ma'naviy-axloqiy tarbiyasini hozirgi zamon ruxi talabi asosida tashkil etish, yaxshilash, takomillashtirish shart deb o'ylaymiz. Talaba-yoshlar tarbiyasida halollik, adolat ma'naviy tarbiya asoslarini hisobga olmaslik mumkin emas. Shuning uchun ham oila tarbiyasida yuqorida yo'q qo'yilgan nuqsonlarni bartaraf etish juda muhim ijtimoiy pedagogik vazifa bo'lib qolmoqda.

Bu masalani hal qilishning ilmiy va amaliy yo'li birinchi navbatda keng aholi hamda ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish, takomillashtirishdir. Chunki ota-onalar buni tushunmasalar talaba-yoshlarni shu asosda ta'sir ko'rsatib tarbiyalay olmaydilar.

Yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini halollik, adolat asosida tashkil qilish, yaxshilash va takomillashtirish uchun avvalo ota-onalarning shu sohadagi umumiy pedagogik ma'lumotlarini halollik, adolat asosida boyitib hayotiy ko'nikma hamda tajribalarini quyidagi ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda tashkil etish uning samaradorligini tiklaydi. Buning uchun avvalo oilada ota-onalar o'zlarida quyidagi tuzilish va mazmunda halollik, adolat haqida pedagogik ma'lumotga ega bo'lmog'i darkor:

insonning ijtimoiy hayotda halol,adolatli bo‘lishi birinchi galda insonning o‘ziga, oilasiga, jamiyatga, davlatga iqtisodiy, ijtimoiy foyda keltirishini anglamog’i va shunga mos xolda ish yuritmog’i;

hayotda halol,adolatli bo‘lish insonni ma’naviy etib tarbiyalashning ob’ektiv talabi, ehtiyojilagini anglamog’i va bolalarni ishontirmog’i;

hayotda insonning halol,adolatli bo‘la olishi oilani, mehnat jamoasini, davlatni moddiy, ijtimoiy rivojlantirishning tayanchligini anglamog’i va farzandlariga tushuntira olmog’i;

hayotda insonning halol,adolatli bo‘lishi jamiyat a’zolarining ongi bilan xulq-atvori, so‘z va ish birligini ta’minalashning tarkibligiga ishonmog’i va shunga mos oilada ish yuritmog’i;

hayotda insonning halol,adolatli bo‘lishi Ona Vatanga, xalqiga, ajdodlarga sodiq, sadoqatli, munosib bo‘lishning milliy vositaligini anglamog’i va shunga mos hayot qurmog’i va xokazo.

Oilada ota-onalarning talaba-yoshlarni ma’naviy shakllantirishda yuqorida ta’kidlangan tarzda va mazmunda tashkil etish, ularning pedagogik madaniyatini takomillashtirishga amaliy yordam beradi degan fikrdamiz.

Shunday qilib, oilada ota-onalarning pedagogik madaniyatini takomillashtirish talaba yoshlarni ma’nan barkamol malakali yetuk kadrlar etib tayyorlashning tarkibi bo‘lmog’i darkor. Mavzuning dolzarbligini xisobga olib, barcha oilalarda, mahalla qo‘o‘

mitalarida, o‘rta maxsus, oliygohlarda muhokama qilib, hayotga joriy eitlsa maqsadga muvofiq bo‘lur edi.